



OLIV TA'LIMDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

U. Almardanov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss3/679

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida investitsiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Xususan, investitsiyaning mazmun-mohiyati, uni joriy etishning obyektiv zaruriyati, oliy ta'lim sohasiga xos bo'lgan xususiyatlari hamda mavjud imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida investitsiyalardan samarali foydalanish mexanizmlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, investitsiya, tadqiqot, davlat, universitet, daromad, infratuzilma, hamkorlik, samaradorlik, innovatsiya, islohot.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of investment utilization in the higher education system. In particular, it highlights the essence of investments, their objective necessity, specific features within the field of higher education, and existing opportunities for their implementation. Furthermore, the paper discusses the priority areas of investment projects in higher education institutions, including the development of infrastructure through public-private partnerships, the enhancement of educational quality, and the support of innovative activities. Based on the research, scientifically grounded conclusions and practical recommendations for the effective use of investments in higher education have been developed.

Keywords: education, higher education, investment, research, state, university, income, infrastructure, partnership, efficiency, innovation, reform.

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены теоретические и практические аспекты использования инвестиций в системе высшего образования. В частности, раскрыта сущность инвестиций, их объективная необходимость, специфические особенности в сфере высшего образования, а также существующие возможности их реализации. Кроме того, анализируются приоритетные направления осуществления инвестиционных проектов в вузах, развитие инфраструктуры на основе государственно-частного партнёрства, повышение качества образования и поддержка инновационной деятельности. По итогам исследования разработаны научно обоснованные выводы и практические предложения по эффективному использованию инвестиций в высшем образовании.

Ключевые слова: образование, высшее образование, инвестиции, исследование, государство, университет, доход, инфраструктура, сотрудничество, эффективность, инновации, реформа.

Kirish

Ma'lumki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanshining eng dolzarb muammolaridan biri ta'limni modernizatsiya qilish bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa ijtimoiy siyosatni amalga oshirish doirasida ta'lim sohasi isloh qilinib, uning yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirishga asoslanadi. Bu holatda davlat tomonidan insonning ijtimoiy sohadagi muammolarini hal qilishga qaratiladi. Aniqroq qilib aytganda, davlat tomonidan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va uni amalga oshirishni anglatadi. Bevosita ushbu yondashuv budjetni, ya'ni birinchi navbatda oliy ta'lim sohasida iste'molchilar tomonidan foyda va xarajatlarni solishtirish asosida unga investitsiya kiritish tizimiga o'tishni belgilaydi. Chunki, oliy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy tayanchi vazifasini bajaradi. Ushbu sohada investitsiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va global raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Shu maqsadda oliy ta'limda investitsiyalardan foydalanish, xususan oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash, laboratoriya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish maqsadida davlat va xususiy sektor tomonidan keng ko'lamda investitsiyalar kiritilmog'i lozim. Bu esa ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zarur bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oliy ta'lim taraqqiyoti va unda investitsiyalardan foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarda ta'limga investitsiyalar darajasi va ta'limning foydalari va xarajatlari haqidagi empirik dalillar to'plangan. Ularda ta'limga investitsiyalar hajmini ko'paytirishga qaratilgan siyosatlar sharhi keltiriladi [1]. Yana bir tadqiqotda oliy ta'lim sohasida investitsiya tushunchasi va kategoriyasining turlicha pul mablag'lari ko'rinishiga egaligi yoritilgan. Xususan, investitsiya - iqtisodiy samara (foyda va daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yiladigan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiyalar) texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir [2]. Ta'lim sohasi taraqqiyotida investitsiyalardan foydalanish mamlakatimizning kelajagini belgilab berishi bo'yicha ham tadqiqotlar qilingan. Ya'ni, yangi O'zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti iqtisodiyotga investitsiya kiritish bilan bevosita bog'liq va bu bo'yicha mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shundan kelib chiqib, boshqa bir tadqiqotlarda davlatning oliy ta'limda investitsiyalardan samarali foydalanishdagi roli o'rganilgan. Xususan, davlatning maqsadli fondlarni shakllantirish va iqtisodiyotda yanada rolini oshirish hamda ularning turlarini ko'paytirish, investitsiyalar jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiq [4].

Investitsiyalardan foydalanish oliy ta'lim shakli bo'lgan universitetlarda amalga oshiriladi. Jumladan, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarga asosan, universitet faoliyatini qo'llab-quvvatlash modeli universitetlarga qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilish mexanizmi, yangi ish haqi tizimiga tayanishi va tahlil qilingan universitetni rivojlantirishning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari imkoniyatlariga ega bo'ladi [5]. Bu borada investitsiyalar jalb qilish ta'lim sohasidagi mavjud muammolarning keng ko'lamli ekanligini asoslaydi. Unga asosan, iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalar hisobi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar milliy iqtisodiyot tamoyillariga muvofiqlashtirilgan holda sohada mavjud muammolarning zamonaviy yechimlarini qamrab olmaydi [6]. Ulardan

tashqari, oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanish kapital harakatiga bog’liq ekanligi tadqiq qilinadi. Unga ko’ra, investitsiyalar kapitalning aktiv tarkibiy qismi sifatida muayyan bir muddatni talab etmaydi. Aniqroq qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida investor uchun investitsiya resurslarining qoplanish muddatidan qat’iy nazar ijtimoiy-iqtisodiy samara keltirishi zarur bo’ladi [7].

Tadqiqotlarda keltirilishicha, jahon tajribasini o’rganish aholi, biznes va davlat tomonidan ta’limga investitsiyalarni rivojlantirishning umumiy tendensiyasi mavjudligini ko’rsatadi. Ya’ni, xususiy investitsiyalarning yangi vositalari shakllantirildi hamda to’g’ridan-to’g’ri budjetdan moliyalashtirishning kam samarali mexanizmlari o’rnini bosuvchi davlat moliyalashtirishning bilvosita usullari joriy etildi [8]. Shundan kelib chiqib, keyingi tadqiqotlarda oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanish ushbu kategoriya shaklida bo’lib, sohadagi daromadlilik darajasini oshirishga qaratiladi. Unga asoslanib aytganda, oliy ta’limga investitsiyalarning daromadlilik darajasi boshqa har qanday investitsiyalarga o’xshaydi [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda tadqiqot metodologiyasida samarali qo’llaniladigan usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada oliy ta’limda investitsiyalardan samarali foydalanishni tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, abstraksiyalash, guruhlash, sintez, induksiya, deduksiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanish ta’lim sohasidagi moliyalashtirish islohotlarining tarkibiy qismidir. Buning uchun investitsiya daromad shaklida bo’lib, turli moliyaviy resurslardan foydalanishga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlari quyidagi yo’nalishlarda asoslanadi:

- uzoq muddatli natijalarga qaratilganligi. Oliy ta’lim sohasidagi investitsiyalar ko’pincha samara bermaydi, uzoq muddatli natijalar, ya’ni raqobatbardosh mutaxassislar, ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalar orqali o’zini oqlaydi.

- integral yondashuvni talab etishi. Investitsiyalar moddiy jihatdan emas, ya’ni ta’lim mazmunini, o’qitish usullarini va boshqaruv tizimini qamrab oluvchi islohotlarga yo’naltirilishi lozim. Ya’ni, investitsiyalar kompleks ravishda samarali foydalanilsa, ko’proq natija beradi.

- infratuzilmaga yo’naltirilganlik. Investitsiyalar ko’p hollarda binolar qurilishi, laboratoriyalar, texnologiyalar, kutubxonalar va turar joylar kabi infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo’ladi. Bu esa ta’lim sifatining asosiy omillaridan biri bo’lib hisoblanadi.

- ilmiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilishi. Ilmiy tadqiqotlar, patentlar, innovatsion loyihalar va startaplar orqali investitsiyalarning qaytishi ta’minlanadi. Shu bois, tadqiqot faoliyatiga sarmoya kiritish muhim ahamiyatli bo’lib hisoblanadi.

- xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini oshirishi. Investitsiyalar xorijiy universitetlar va tashkilotlar bilan qo’shma dasturlar, akademik almashinuvlar va ilmiy loyihalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

- talab va bozor ehtiyojlariga moslashuvchan bo’lish. Samarali investitsiyalar mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, ta’lim yo’nalishlarini diversifikatsiya qilish va yangi sohalarni qamrab olishni ta’minlashi kerak.

- iqtisodiy samaradorlikka ta’siri. Oliy ta’limga investitsiya kiritish natijasida yuqori malakali kadrlar yetishib chiqadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror o’sishiga turtki beradi.

- ta’lim muassasalarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik talab etilishi. Investitsiyadan samarali foydalanish uchun mablag’lar maqsadli va to’g’ri yo’naltirilishi lozim. Shu bois, shaffof moliyaviy mexanizmlar va hisobot tizimi investitsiyalar qaytishida muhim o’rin tutadi.

Shuningdek, oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanish investitsiya turiga, manbalariga, qo’llanilish yo’nalishlariga va kutilayotgan natijalariga bog’liq bo’ladi. Ammo, oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanish aniq bir oliy ta’lim muassasasining sharoitlariga qarab o’zgarishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Oliy ta’limda investitsiyalardan foydalanishning xususiyatlari

Investitsiya turi	Manbalar	Qo’llanilish yo’nalishlari	Kutilayotgan natijalar
Inson kapitaliga investitsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> - davlat budjeti (grantlar va stipendiyalar) - xususiy homiyalar (stipendiyalar) - xalqaro grantlar 	<ul style="list-style-type: none"> - talabalarning o’qishi va ilmiy faoliyati uchun to’lovlar - o’qituvchilar malakasini oshirish kurslari - chet elda stajirovka va almashinuv dasturlari 	<ul style="list-style-type: none"> - talabalarning bilim darajasi oshishi - o’qituvchilar pedagogik va ilmiy mahoratining oshishi - bitiruvchilar ish bilan ta’minlanish darajasining oshishi
Infratuzilmaga investitsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> - davlat budjeti (kapital qo’yilmalar) - oliy ta’lim muassasasi mablag’lari - kreditlar va lizing 	<ul style="list-style-type: none"> - o’quv binolari va laboratoriyalarni qurish va ta’mirlash - zamonaviy o’quv uskunalarini xarid qilish - kutubxona fondini yangilash 	<ul style="list-style-type: none"> - o’quv jarayoni sifatini yaxshilash - ilmiy tadqiqotlar uchun qulay sharoitlar yaratish - talabalar va o’qituvchilar uchun qulay muhit yaratish
Ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> - davlat budjeti (ilmiy grantlar) - xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik shartnomalari - xalqaro ilmiy grantlar 	<ul style="list-style-type: none"> - ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish va jihozlash - ilmiy loyihalarni moliyalashtirish - ilmiy konferensiya va seminarlar o’tkazish - ilmiy maqolalar chop etish 	<ul style="list-style-type: none"> - ilmiy ishlanmalar soni va sifati oshishi - innovatsion texnologiyalarning yaratilishi - oliy ta’lim muassasasi ilmiy nufuzining oshishi
Innovatsiyalarga investitsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> - venchur fondlari - biznes-anjellari - oliy ta’lim muassasasi mablag’lari 	<ul style="list-style-type: none"> - startap loyihalarini moliyalashtirish - texnoparklarda ishtirok etish - talabalar va o’qituvchilar innovatsion g’oyalarini qo’llab-quvvatlash 	<ul style="list-style-type: none"> - innovatsion loyihalar sonining oshishi - yangi korxonalarining tashkil etilishi - ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishi

Ushbu keltirilgan jadval oliy ta’lim muassasasiga investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan maqsadli foydalanish uchun zarur bo’ladi. Shuningdek, investitsiya kirituvchi subyektlarga (davlat, xususiy investorlar va xalqaro tashkilotlar) mablag’larning qaerga sarflanayotganligini va qanday natijalar kutilayotganligini ko’rish imkoniyatini beradi. Biroq, bu borada quyidagi unsurlarni alohida e’tibor olish talab qilinadi:

- investitsiya manbalari: Davlat budjeti, xususiy investorlar, xalqaro tashkilotlar, oliy ta’lim muassasasi o’z mablag’lari va hokazo.

- qo’llanilish yo’nalishlari: Investitsiyalar sarflanishi (talabalarga stipendiya, laboratoriya uskunalarni xarid qilish, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va hokazo).

- kutilayotgan natijalar: Investitsiyalar natijalari (talabalar bilim darajasining oshishi, ilmiy ishlanmalar soni va sifati oshishi, innovatsion texnologiyalar yaratilishi va hokazo).

- o’lchov ko’rsatkichlari: Kutilayotgan natijalarga erishilganligini o’lchash (imtihon natijalari, ilmiy maqolalar soni, patentlar soni, bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi va hokazo).

Xulosa va takliflar

Oliy ta’limda investitsiyalardan oqilona foydalanish ta’lim sifatini yaxshilash va mamlakatning kelajakdagi intellektual salohiyatini shakllantirishning muhim omilidir. Bu borada investitsion faoliyatni samarali tashkil etish orqali rivojlangan, raqobatbardosh va barqaror ta’lim tizimiga erishiladi. Shulardan kelib chiqib, oliy ta’lim taraqqiyoti uchun investitsiyalarni maqsadli va samarali yo’naltirish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va natijadorlikni baholash tizimini takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun xususiy sektorni keng jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ta’lim sohasidagi investitsiya iqtidorini yanada oshirish mumkin. Natijada, oliy ta’limga investitsiya kiritish yuzasidan oqilona qarorlar qabul qilinib, ushbu sohaning imkoniyatlari kengayadi. Shu orqali oliy ta’limda ko’pgina imkoniyatlar eshigi ochiladi, shaxslarning kelajakda tanlagan sohalarida ishlashlari uchun zarur ko’nikmalari, bilimlari, tajribalari va malakalari rivojlanadi. Bu shaxsiy rivojlanish, katta daromad va ish barqarorlik uchun yangi yo’l bo’lib ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Dickson L.M. (2011). Individual Investments in Higher Education. In: Lamdin D. (eds) Consumer Knowledge and Financial Decisions. International Series on Consumer Science. Springer, New York. https://doi.org/10.1007/978-1-4614-0475-0_20

2. Ro’ziboyeva N., Abdikabilav S. Ta’lim tizimida investitsiyalarning kiritishning ahamiyati va rivojlantirish muomolari. // "Экономика и социум", №2(81), ч.1 2021. - 298 b.

3. Aymuxammedova A.K. Investitsiya salohiyati va iqtisodiyotda undan samarali foydalanish yo’llari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel (№00058). - 74 b.

4. Qurbonov M.A. Budjetdan tashqari mablag’lar hisobidan xarajatlar yo’nalishlariga investitsiyalardan foydalanish. // Moliya va bank ishi elektron-ilmiy jurnali, III SON. may - iyun, 2020. - 193 b.

5. Ковцева И.П. Модель сопровождения деятельности высшего учебного заведения в системе развития экономического потенциала России. // Российское предпринимательство, 2011, Т.12, №4. - с. 132-136.

6. Abdusalomova N. (2023). Investitsiyalar hisobini raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirish. // Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(4). - 12 b.

7. <https://fanvatalim.uz/uz/article/122/>

8. Курбатова М.В., Дудченко Н.П. Проблемы становления системы частного инвестирования в высшее профессиональное образование. // Университетское управление: практика и анализ, 2003. - с. 62.

9. <https://education.stateuniversity.com/pages/1930/Economic-Benefits-Education-Investment-Measurement.html>